



Transport Oqimlarini Boshqarishda Raqamli Texnologiyalarni Qo‘Llash

Abdullayeva Nozima Xoshimovna,
Namangan davlat texnika universiteti, dotsent

Аннотация: Данная статья содержит информацию по обеспечению управления трафиком, безопасной и привлекательной системы общественного транспорта, мероприятия по повышению способа и путей решения проблем с пробками на дорогах.

Ключевые слова: Транспорт, дорожное движение, общественный транспорт, дорожная сеть, транспортная макромодель, безопасность движения.

Annotation: This article contains information on ensuring traffic management, a safe and attractive public transport system, measures to improve the way and ways to solve traffic congestion problems.

Key words: Transport, road traffic, public transport, road network, transport macromodel, traffic safety.

Xozirgi axborot jamiyati shakllanishi sharoitida axborot va bilimlar taraqqiyotning strategik omiliga aylangan bir davrda mamlakat rivojlanishi va uning raqobatbardoshligini ta'minlash zamonaviy axborot-kommunikatsiya va «raqamli» texnologiyalarni jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalariga joriy etilishi bilan bog‘liq.

Shu maqsadda, 05.10.2020 y.da «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–6079-son Prezident Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan quyidagilar tasdiqlandi:

1. «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi».

Strategiyani amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi» elektron hukumatni rivojlantirish, raqamli sanoat, raqamli ta’lim va raqamli infratuzilma sohalaridagi maqsadlarni qamrab olgan.

2. 2020–2022 yillarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari.

Dasturga doirasida:

- “aholi punktlarini internet tarmog‘iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga yetkazilishi;
- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etilishi;
- 587 ming nafar kishini, shu jumladan «Bir million dasturchi» loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o‘qitish tashkillashtirilishi;
- iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etilishi;
- hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish uchun tegishli oliy ta’lim muassasalari birlashtiriladi hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o‘qitilishi” nazarda tutilgan.



Mamlakatimizda «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta‘minlash bo‘yicha xalq ta‘limi, davlat xizmatlari, sud, moliya va bank tizimida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

«Raqamli O‘zbekiston – 2030» dasturini joriy etish, «aqli», «xavfsiz» shahar, «Internet buyumlari» texnologiyalarini keng joriy qilish, telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ushbu asosda mamlakat YAIMning 30 foizga o‘shishi hamda «raqamli iqtisodiyotga tayyorlik» va «AKT rivojlanishi» xalqaro indeklari bo‘yicha ilg‘or davlatlar qatoriga kirishni ta‘minlashni ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Dunyo olimlarining taxliliga ko‘ra, 2008-2009 yillar davomida Internet tarmog‘iga ulangan qurilmalar va tizimlar yer yuzidagi insonlar sonidan oshib ketgan va 2016 yilga kelib ularning miqdori 25 milliardni tashkil etgan. 2021 yilga borib esa bu ko‘rsatkich ikki yarim barobarga, ya‘ni 63 milliardni tashkil etadi. Shu ko‘rinishda «Internet va insonlar» tushunchasidan «Buyumlar va interneti», ya‘ni IoT (Internet of Things) tushunchasiga o‘tish jarayonlari yuqorilab ketmoqda.

"Internet buyumlari" (Internet of Things - IoT) - bu turli xil "aqli qurilmalar" orqali boshqaruv va nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish va ularda odamlarning ishtirokini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradigan turli xil qurilmalar va mashinalar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir va ma‘lumot almashish tizimidir.

«Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta‘minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. Mazkur Strategiya O‘zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari hamda o‘rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.


Farmonga muvofiq, «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi tasdiqlanib, birgina 2020-2022 yillarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida aholi punktlarini internet tarmog‘iga ulash darajasi, jumladan, keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan edi.

Farmon ijrosi doirasida 2020-2022 yillarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi belgilangan hududlarni raqamli transformatsiya qilishga qaratilgan 1600 dan ortiq hamda soha tarmoqlarini raqamli transformatsiya qilishga qaratilgan 483 ta loyiha va chora-tadbirlar ma‘sul ijrochilar tomonidan o‘z vaqtida bajarilishi monitoringi olib borildi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklar tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta‘minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

O‘zbekistonda dastlabki — «Raqamli O‘zbekiston – 2030» termini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ishlatildi, ya‘ni, — «Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda



«Raqamli O‘zbekiston – 2030» dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Bu borada axborot xavfsizligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratish zarur», degan fikrni alohida ta‘kidlab o‘tgan edilar. «Raqamli O‘zbekiston – 2030» milliy konsepsiyasi mamlakatimizda yangi imkoniyatlar ochib beradi.

Davlat tashkilotlarini real vaqt – Onlayn tizimiga ulash, davlat sektori va fuqarolar o‘rtasidagi aloqani yagona elektron vosita bilan ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi zamonaviy axborot asriga kirishga jiddiy maqsadlar qo‘yayotganligini ko‘rsatdi.

Transport tizimining eng muhim vazifalaridan biri iqtisodiyot va aholining xavfsiz va samarali transport xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish sifatini oshirish orqali mamlakatimiz transport-yo‘l kompleksi faoliyatining maksimal samaradorligini ta‘minlashdir. Aholining zaruriy harakatchanligini ta‘minlash vazifasini amalga oshirish faoliyatning o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ikkita yo‘nalishi tufayli amalga oshiriladi: yangi yo‘l uchastkalarini qurish va zamonaviy axborot, telekommunikatsiya va telematik texnologiyalardan foydalangan holda transport tizimini tashkiliy boshqarish texnologiyalarini joriy etish.

Huquqbuzarliklarni rasmiylashtirishda innovatsion yondoshuvlar.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari kirib bormagan sohaning o‘zi qolmadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kundan-kunga rivojlanib, mamlakatimizda axborotlashtirish jarayoni sezilarli darajada o‘tib bormoqda.

Bu, o‘z navbatida, fuqarolarimiz uchun zarur axborotlardan, turli davlat interaktiv xizmatlaridan keng foydalanish imkoniyatini yaratmoqda.



Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari sohani yanada takomillashtirish, shaffoflikni ta‘minlash va eng muhimi korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish bo‘yicha zimmalaridagi vazifalarini bajarib kelishmoqda.



Sohani rivojlantirish maqsadida xukumatimiz tomonidan bir qator qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Masalan:

➤ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.12.2018 yildagi “Yo‘l-patrul xizmati xodimlarining yo‘l harakati qatnashchilari bilan o‘zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 975-son qarori qabul qilindi.

➤ **Vazirlar Mahkamasi tomonidan 8.07.2021 yildagi «Ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida»gi 431-son qaror qabul qilindi.**

Hujjat Prezidentning 5.10.2020 yildagi «Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6079-son hamda 24.11.2020 yildagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6118-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida qabul qilingan.

Qaror bilan Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida yagona elektron ish yurituv tizimi (keyingi o‘rinlarda – «E-ma‘muriy ish» tizimi) orqali ma‘muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqidagi nizom tasdiqlandi.

So‘nggi yillarda Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga ko‘plab innovatsion yangiliklar olib kiritilmoqda. Shulardan biri bu harakatlanish xavfsizligini ta‘minlash ishlari samaradorligini oshirish maqsadida joriy etilayotgan zamonaviy planshetlardir. Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan, yo‘l-patrul xizmati inspektorlari qoidabuzarliklar sodir etayotgan yo‘l harakati ishtirokchilariga nisbatan elektron tarzda bayonnoma rasmiylashtirish tartibi joriy etildi. YPX inspektorlariga planshetlar berilib, bayonnomalar ham elektron shaklga o‘tdi. Hozirda planshetlardan foydalanib elektron bayonnomalar rasmiylashtirilmoqda.

Elektron bayonnoma rasmiylashtirilgan huquqbuzarlarning ma‘lumotlari planshetga kiritilishi bilan bir vaqtning o‘zida Respublika markazlashgan serveri orqali:

- migratsiya;
- qidiruv;
- fosh etilmasdan qolayotgan jinoyatlar;
- qarzdorliklar va boshqa tezkor ma‘lumotlar bazasidan tekshiriladi.


Bunda elektron qaror qabul qilinib, onlayn tarzda transport vositasining egasi, haydovchining telefon raqamlariga:

- sodir etilgan qoidabuzarligi;
- qoidabuzarliklarning amaldagi qonunlar bo‘yicha tasnifi;
- ularda belgilangan jarima miqdorlari;
- to‘lovni amalga oshirish bo‘yicha individual hisob raqami to‘g‘risidagi ma‘lumotlar haqida SMS xabar yuboriladi.

«E-ma‘muriy ish» yagona axborot tizimi huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning uzviy bog‘liqligini ham ta‘minlaydi. Rasmiylashtirilgan hujjatlar elektron holatda saqlanadi. Ularning yo‘qolishi xavfi keskin kamayadi.

Eng asosiysi, fuqarolar o‘zlariga nisbatan rasmiylashtirilgan ma‘muriy bayonnomalar qay holatda ekanligini to‘liq nazorat qilib borishi mumkin. Chaqiruvlar esa pochta yoki SMS xabarnoma orqali yuboriladi.

Shuningdek, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida yagona elektron tizim orqali ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaslarga ma‘muriy bayonnomalar shakllantirish, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va vakolatli davlat organlari tomonidan tizimdan foydalangan xolda ma‘lumotlarni elektron tarzda yuritish. «E-ma‘muriy ish» ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ma‘muriy javobgarlikka tortilgan



shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni vakolatli organlar tomonidan tekshirish, zarur ma'lumotlarni olish hamda ulardan foydalanish imkoni yaratildi.

Xulosa qilib, turli transport korxonalari va shaxsiy transport vositasi egalari transport tizimida intellektual tizimlarni qo'llab kelmoqdalar. Bu orqali haydovchi ish rejimi, avtomobil ish rejimi, transport vositasining texnik holati, harakat yo'nalishi kabi omillarni nazorat qilish samarali hisoblanadi. Ularga o'rnatilgan intellektual vositalar real vaqt rejimida ishlashi nazorat va transport vositasidan samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi —Raqamli iqtisodiyat va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risidagi PQ-4699-sonli qarori, <https://lex.uz/pdfs/4800657>
2. 2..
3. Касимов, О. К., & Ражапова, С. С. (2019). ИТС В АВТОДОРОЖНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Экономика и социум, (4), 393-397. <https://elibrary.ru/item.asp?id=38595079>
4. Маллабоев, Н., & Абдуллаева, Н. (2016). МЕСТО СИСТЕМЫ" ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА" В РАЗВИТИИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. Теория и практика современной науки, (6-1 (12)), 834-838
5. INTELLIGENCE OF TRANSPORT SERVICES IS A PRIORITY OF SYSTEM EFFICIENCY, SS Rajarova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2021, <https://cyberleninka.ru/article/n/intelligence-of-transport-services-is-a-priority-of-system-efficiency/viewer>.
6. РАЖАПОВА С., ШАКИРОВ А., АВТОМАТИЗАЦИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ФУНКЦИЙ НА ПАССАЖИРСКОМ АВТОМОБИЛЬНОМ ТРАНСПОРТЕ., ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ, 3-2 (82), 2021, стр. 258-262, <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45784479>